

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti”da 2027-yil uchun mavjud ustuvor yo‘nalishlar!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi **PF–98-son Farmoni** hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 1-iyuldagi **267-son buyrug‘i** asosida ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlariga oid ixtisosliklar ro‘yxati qayta tasdiqlandi.

Mazkur ro‘yxatning **“Raqamli va axborot texnologiyalari, jumladan sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, ma’lumotlar tahlili va raqamli yechimlarni ishlab chiqish”** ustuvor yo‘nalishida quyidagi ixtisosliklar belgilangan:

- ◆ **05.01.01** – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va videotexnologiyalari;
- ◆ **05.01.02** – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotlarni qayta ishlash;
- ◆ **05.01.03** – Informatikaning nazariy asoslari;
- ◆ **05.01.04** – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti;
- ◆ **05.01.05** – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot va kiberxavfsizlik;
- ◆ **05.01.07** – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui;
- ◆ **05.01.10** – Axborot olish tizimlari va jarayonlari;
- ◆ **05.01.11** – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt;
- ◆ **05.04.01** – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash;
- ◆ **05.04.02** – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televideniye tizimlari va qurilmalari. Mobil tolaoptik aloqa tizimlari;

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida mazkur ixtisosliklarning mavjudligi universitetda ushbu ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy kadrlar tayyorlash imkoniyatlari keng ekanini ko‘rsatadi.

2027-yildan boshlab mazkur ustuvor ixtisosliklar bo‘yicha tayanch doktorantura, doktorantura hamda mustaqil izlanuvchilik institutlariga qabul jarayonlarida ushbu yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Eslatib o‘tamiz, 2027-yildan boshlab ustuvor yo‘nalishlarga oid ixtisosliklar bo‘yicha tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul qilingan doktorantlarga stipendiya 1,7 baravar oshirilgan miqdorda to‘lanadi.